



ISSN 2181-1571

FarDU. ILMIY XABARLAR

IJTIMOIIY FANLAR



3/2025



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya, geografiya va qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket ilmiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof.
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, prof.
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof.	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof.
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof.	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Sidoarjo'dagi Muhammadiya universiteti, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof.	SCOTT LEVI (AQSH)	Ogayo davlat universiteti, PhD, prof.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof.	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof.	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk Universiteti
ABDULLAEVA Z (Qirg'iz Respublikasi)	OshDU k.f.n., dots.	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof.		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc).
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof.	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof.	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots.	QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d., prof.
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.	FarDU, t.f.b.f.d., prof.
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots.		

Bo'lim boshlig'i: Mahmudov.O.V. t.f.b.f.d. (PhD), dots.

Texnik muharrir: Sheraliyeva J.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism.....	6
---	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
--	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li.....	14
--	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari.....	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari	33
--	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari	43
---	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi.....	48
---	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
---	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari	62
--	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat	67
---	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari.....	75
--	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari.....	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
--	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili	93
---	----

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li.....	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniyl qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiylning inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari.....	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiyl-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi.....	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariyl-metodologik asoslari.....	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarining ijtimoiyl roli.....	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки).....	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar.....	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi.....	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiyl adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198

X.E.Xodjamberdiyev

Sovet hukumati tomonidan O'zbekistonda madaniyat sohasida amalga oshirilgan milliy siyosat va uning ijtimoiy oqibatlari (1945-1960-yillar) 206

J.Sultonov

Xorazmshoh va Kuchlukning raqobati: Markaziy Osiyoda siyosiy kuchlari o'rtasidagi ziddiyat 212

U.X.Gulmatov

Transport tizimining avtomobil va temir yo'l tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlash muammolari va yechimi 219

A.H.Boltayev

Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyatining faoliyatiga bir nazar 224

Sh.Qo'ldashev, B.Umarxodjayev

Farg'ona dostonchilik maktabi tarixiga doir ba'zi ma'lumotlar 228

M.F.Rasulov

Markaziy Osiyoda qadimgi arxivlar tarixi..... 231

A.A.Abduqahorov

XX asr boshida Turkistonda jadid matbuoti va uning jamiyatga ta'siri..... 237

ILMIY AXBOROT

D.N.Toshpo'latov

Additiv axloqning milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlarga ta'siri 241

F.E.Tuyev

Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi (1991-2008 yillar)..... 246



UO'K: 94.902.6:902.9:001

**BUXORO TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARINI SAQLASH JAMIYATINING
FAOLIYATIGA BIR NAZAR****ВЗГЛЯД НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА ОХРАНЫ ПАМЯТНИКОВ
ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ БУХАРЫ****A LOOK AT THE ACTIVITIES OF THE SOCIETY FOR THE PROTECTION OF
HISTORICAL AND CULTURAL MONUMENTS OF BUKHARA****Boltayev A'zam Homidovich¹** ¹Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'tgan asrning 80 yillarida Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyati tomonidan amalga oshirilgan konferensiya natijalari va ular qabul qilgan qarorlar hamda vazifalar haqida to'xtalib o'tilgan. Uch yil davomida jamiyat tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan, erishilgan yutuqlar va kamchiliklar muhokama qilingan. Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar, narsh qilingan ishlar va tarixiy yodgorliklarning otaliqqa olish masalalari maqolada yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассказывается о результатах конференции, проведенной Бухарским обществом охраны памятников истории и культуры в 80-х годах прошлого века, а также о принятых ими решениях и задачах. В течение трех лет анализируется проделанная обществом работа, обсуждаются достигнутые успехи и недостатки. В статье освещаются проводимые обществом мероприятия, проделанная работа и вопросы отцовства исторических памятников.

Abstract

This article describes the results of the conference held by the Bukhara Society for the Protection of Historical and Cultural Monuments in the 80s of the last century, as well as the decisions and tasks they adopted. Over the course of three years, the work done by the company is analyzed, the successes and shortcomings achieved are discussed. The article highlights the events held by the society, the work done and the issues of paternity of historical monuments.

Kalit so'zlar: Arxitektura, jamiyat, madrasa, ta'mirlash, rekonstruksiya, yodgorlik, ekskursiya, prezidium, syezd, konservatsiya, plenum, konferensiya.

Ключевые слова: Архитектура, общество, медресе, ремонт, реконструкция, памятник, экскурсия, президиум, съезд, консервация, пленум, конференция.

Key words: Architecture, society, madrasah, repair, reconstruction, monument, excursion, presidium, congress, conservation, plenum, conference.

KIRISH

XX asr 60 yillar oxirlarida Sovet hukumati va partiyasi tomonidan xalqimizning muqaddas yodgorliklarini saqlashga katta ahamiyat berila boshlandi. Respublika ministrlar sovetining qarori va 1967-yil apreldagi Jamiyatning ta'sis syezddidan keyin o'lkamizdagi bebaho obidalarini saqlash, yangilarini izlab topish va ularning tarixini o'rganish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati bu o'lkadagi yodgorliklarni o'rganadigan, ularni saqlaydigan va yangilarini topib ularni ro'yxatga kiritadigan tashkilot bo'lib, unda o'lka tarixi masalari aks etgan. Jamiyat faoliyati arxiv materiallari asosida atroflicha yoritildi. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Mustaqillikgacha bo'lgan davrdagi tarixiy ilmiy adabiyotlar. 2. Buxoro viloyat davlat arxiv hujjatlari. 3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Arxiv hujjatidagi ma'lumotga ko'ra, O'zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyati 1967-yili tuzilgan va shu yilda o'lkamizning barcha hududlarida jamiyatning filiallari shu qatori Buxoroda ham tarixiy-madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyati tuzilganligi qayd qilinadi[

TARIX

1,2,3,6.]. Jamiyatning birinchi ta'sis syezdi 1967-yil 5-aprelda o'tkazilgan va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan[7,8,9.]. Jamiyatning birinchi ta'sis syezdida qilinadigan vazifalar muhokama qilinadi va yetti bandedan iborat qaror qabul qilinadi hamda shu davrdan boshlab o'lkamizning hamma joylarida jamiyat o'z faoliyatini olib boradi[10.].

Mazkur qarordan so'ng Buxoro viloyati, shahar va tuman jamiyatlari tuziladi. Mazkur jamiyatlar oldida tarixiy madaniy yodgorliklarni asrash, o'rganish va yangi yodgorliklarni aniqlash vazifasi qo'yilgan. O'sha davrda Buxoro viloyatida jamiyatning 300 dan ortiq boshlang'ich tashkilotlari bo'lib, ularning safiga 15 mingdan ortiq kishilar birlashgan.

1984-yil aprelda Buxoro viloyat tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatning VII konferensiyasi bo'lib o'tadi. Unda jamiyatning 1981-yil 1-yanvardan 1984 yil 1-yanvargacha bo'lgan davrdagi ishlari o'rganilgan, tahlil va muhokama qilingan[5].

Aholi o'rtasida jamiyatning maqsad va vazifalarini tushuntirish, yodgorliklarni keng targ'ib qilish maqsadida uch yil davomida jamiyat a'zolari tomonidan 12 ta ma'ruza matni ishlab chiqilgan, 17-marotaba ma'ruzalar kuni tashkil etilgan, shu davr mobaynida 3962 ta ma'ruza va davra suhbatlari o'tkazilgan, bu tadbirlarning ko'pchiligi qishloq joylarida uyushtirilgan. Jamiyatning faol a'zolari tomonidan 9 ta plakat va bukletlar, 178-marta radio orqali chiqishlar uyushtirilgan hamda matbuotda qariyb 200 ta maqola, ocherklar, materiallar yoritilgan. 70 tarixiy obyektida uch marta kino xaftaligi o'tkazilgan, ko'rgazmalar va ekskursiya ishlari kengaytirilib, xalq universiteti tizimida o'tkaziladigan ma'ruza rejalari boyitilgan[4].

Yodgorliklarni ta'mirlash, obodonlashtirish va ulardan hozirgi zamon sharoitida foydalanish bo'yicha viloyat sovet jamiyatining hissasi ancha oshgan. Jamiyat tomonidan o'lkadagi 5 ta arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash uchun 213 ming rubl sarflangan. O'lkadagi yodgorliklarni arxeologik tadqiq qilish uchun 3 ming rubl sarflangan[5].

Jamiyat tomonidan Vatan urushida qatnashgan askar va mehnat shon-shuhrati yodgorliklari oldida 266 ta tantanali tadbirlar o'tkazilgan. Tarixiy joylar, davlat arboblari qo'yilgan yodgorliklar, ulug' Vatan urushida qahramonlarcha halok bo'lganlar xotirasiga qurilgan memorial yodgorliklar atrofi mehnat, yoshlik bayramlari, yangi urf-odatlarini o'tkazish markazi bo'lib qolgan[5].

Shuningdek, viloyat jamiyati huzurida "Bolalar ijodiyoti" va "Sadridin Ayniyni hujra – muzeyi" faoliyat olib borgan va bu joylarda yoshlar, o'quvchilar, sovet va chet el turistlari tashrif buyurgan. Turli xil tanlovlar o'tkazish natijasida jamiyatning muzeyi yangi eksponatlar bilan boyib borgan.

O'lkada tarix va madaniy yodgorliklarning targ'ibotchisi sifatida viloyat jamiyatining ekskursiya bazasi yetakchilik qilgan va bu ishlarni amalga oshirish uchun o'lkaning turli joylarida ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar keng namoyish qilingan, bu filmlar "Tarix va madaniyat yodgorliklari" seriyali bo'lib tomoshabinlarga katta qiziqish uyg'otgan. Shuningdek, jamiyat a'zolari tomonidan yodgorliklar oldida uchrashuvlar va ekskursiyalar ham bo'lib o'tgan.

Shu davr oralig'ida yodgorliklarga homiylik qiluvchi tashkilotlar, jamiyatning boshlang'ich tashkilotlari, seksiyalari, inspektorlari va jamiyat faollarining ishlari yaxshilanadi. Jamiyat soveti, uning prezidiumlari va seksiyalarining kadrlar tarkibi yangilandi va ularning tarkibiga olimlar, mutaxassislar, sovet va komsomol organlari, viloyat, shahar va tuman tashkilotlarining vakillari kiritildi.

Konferensiya ishi shuni mamnuniyat bilan qayd qiladiki, bu muvaffaqiyatlarning hammasi O'zbekiston Kompartiyasi viloyat komiteti, viloyat ijroiya komiteti va yodgorliklarni saqlash respublika jamiyatining katta g'amxo'rliqi va viloyat sovet jamiyatining viloyat, shahar va tuman partiya sovet tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashi, ishchanlik va ijodiy izlanish bilan olib borishining samarasidir[5].

Shu bilan bir qatorda konferensiya hisobotida viloyat soveti va uning quyi tashkilotlari ichida bir qator kamchilik va nuqsonlar, hal qilinmagan vazifalar borligi hamda bularga jiddiy e'tibor berish zarurligi qayd qilinadi. Masalan, viloyatda arxeologik yodgorliklarni qisman buzish hollarining uchrashi, yodgorliklarni saqlash jamiyati tomonidan ularni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi qayd qilinadi.

Ayrim shahar va tumanlarda yodgorliklarni hisobga olish va ularga pasport yozish ishlari tugallanmagan, bir qator homiylik qiluvchi tashkilotlar o'zlariga birlashtirilgan yodgorliklarni saqlash va obodonlashtirish bo'yicha amaliy ishlarni boshlab yubormagan, jamiyat a'zolari safida yetarli darajada mehnatkash va yoshlarni jalb qilishga erishilmagan.

Jamiyatning ayrim shahar va tuman sovetlari yodgorliklarni targ'ib qilishning turli xil usullaridan foydalanishda yetarli baho bermayaptilar, hozirgacha institutlarda o'lkani o'rganish fakulteti tashkil qilinmagan, o'kadagi jamiyatlarda tanlovlar tez-tez o'tkazilmaydi, matbuot va radiodan to'la ravishda foydalanmaydilar.

Jamiyatning viloyat, shahar va tuman sovetlari tarixiy shaharlarga yoshlarning ekskursiyalar va sayohatlarini tashkil qilishga yetarli e'tibor bermayaptilar.

Ayrim jamiyat boshlang'ich tashkilotlarning ishlari O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1983-yil 10-iyulda qabul qilgan "Ko'ngilli jamiyatlarning faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi №370-sonli qaroriga javob bermaydi. Ular orasida faoliyati sust, faqatgina a'zolik badallari yig'ish bilan shug'ullanuvchilar oz emas. Boshlang'ich tashkilotlarni ko'paytirish, ularga kattalarni va yoshlarni jalb qilish imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayotir.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida konferensiya quyidagi qarorlar qabul qilgan.

Viloyat sovet jamiyati va quyi organlarining asosiy vazifasi kompartiya qarorlarini hayotga tatbiq etish, jamiyatning ommaviy ishlarini yanada rivojlantirish, mustahkamlash, moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash, ta'mirlash va targ'ib qilishni har taraflama jonlashtirish bo'lgan.

Konferensiya tomonidan jamiyatning viloyat, shahar va tuman sovetlariga quyidagi ishlarni bajarish vazifasi topshirilgan.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1983-yil 10-iyulda qabul qilgan "Ko'ngilli jamiyatlarning faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi 370-sonli qarori asosida jamiyatning barcha ko'ngillilari tashkil qiladigan targ'ibot-tashviqot ishlarini tubdan yaxshilashga qaratilgan aniq tadbirlar ishlab chiqish;

barcha boshlang'ich tashkilotlarda ma'ruza targ'ibotini kuchaytirish, bu ishga olimlar va mutaxassislarini jalb etish, radio orqali ko'proq eshittirishlar tashkil qilish, yodgorliklarni saqlash jamiyatning faoliyatiga oid materiallarni gazeta sahifalarida keng yoritish, bu ishda kolxozlardagi radio uzellari hamda yirik korxona, qurilish va oliy o'quv yurtlaridagi ko'p tirajli gazetalardan foydalanish;

viloyat, shahar, tumandagi sovet jamiyatlarining boshlang'ich tashkilotlari tarixiy yodgorliklarning madaniy va ilmiy ahamiyatini keng targ'ib qiluvchi bukletlar va plakatlar tayyorlab, nashr etish;

yodgorliklarni targ'ib qilishni har taraflama rivojlantirish asnosida jamiyatning ommaviyligini yanada oshirish, ular atrofida katta yoshdagi aholi va o'quvchi yoshlarni keng jalb etishga erishish;

xalq maorifi organlari va viloyat o'lkani o'rganish muzeyi bilan birgalikda bolalarning badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirishga yordam ko'rsatish va kolxozlar hamda maktablarda o'lkani o'rganish muzey tarmog'ini keng tashkil qilish;

yodgorliklar oldida tantanali tadbirlar o'tkazish yo'li bilan mehnatkashlar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hozirgi zamon monumental san'ati asarlaridan keng foydalanish;

tarix va madaniy yodgorliklarini tiklash va ta'mirlash rejalarini o'z vaqtida va yuqori sifatli bajarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirilishi ustidan doimiy nazorat qilish;

barcha arxitektura va tarixiy yodgorliklarni maktablar, oliy o'quv yurtlari, korxonalar, kolxoz va sovxozlarga otaliqqa berilishini ta'minlash, otaliq ishlarining ahvoli ustidan doimiy nazorat qilish, jamoat inspektorlari ishini faollashtirish, arxeologik yodgorliklarning zararlanishi yoki buzilish hollariga yo'l qo'yamaslik;

ishchi, xizmatchi, o'quvchi – yoshlarning dam olish kunlarida, ta'til vaqtlarida tarixiy yodgorliklarga, respublikaning tarixiy joylariga borishlari, ekskursiya qilishlarini keng ravishda tashkil qilish kabi vazifalar konferensiya yakunida ishlab chiqilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XX asr 80-yillarida tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati faoliyati natijasida Buxoro viloyatida bir qator ijobiy ishlar qilinganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan bu ishlar albatta tarixiy, arxitekturaviy yodgorliklarni saqlash va o'rganish uchun xizmat qilgan. Ikkinchi tamondan sovet hokimiyati o'zining kommunistik g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish uchun o'lkamizdagi tarixiy yodgorliklardan foydalangan. Buni to'g'ri tushunish lozim chunki o'sha davr uchun hukmron kommunistik mafkura bo'lgan. Ammo jamiyat a'zolarining sa'yi-harakati bilan bir qator yodgorliklar buzilishining oldi olingan. Ularni davlat tashkiloti va korxonalarga otaliqqa berilishi natijasida yodgorlikning holati yaxshilangan va ulardan unumli

TARIX

foydalanilgan. 1984-yilda o'tkazilgan konferensiyada jamiyatning uch yillik faoliyati taftish qilinadi hamda yutuq va kamchiliklar tanqid ostiga olinadi. Konferensiya oxirida jamiyat boshlang'ich tashkilotlari qilinishi kerak bo'lgan vazifalar qayd qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva D.A. Maxsus tashkilot va muassasalarning Buxoro me'moriy obidalarini ta'mirlashdagi faoliyati (XX asrning 20-80-yillari).: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 54 b.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1270 -fond. 1-ro'yxat, hujjatning so'zboshi qismi.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1270- fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 2-varaq
4. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1270- fond, 1-ro'yxat, 6-yig'majild, 220, 284, 290-294 varaqlar.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1270- fond, 1-ro'yxat, 34-yig'majild, 84-94- varaqlar.
6. Boltayev A.X. Buxoro tarixini o'rganayotgan jamiyatlar ("Qadim Buxoro" ilmiy-tadqiqot markazi misolida) //BuxDU ilmiy axborotnomasi. № 12. 2024. – B. 42-46
- 7.Пўлатова Х. Обидаларга сайқал бериб //Ўзбекистон маданияти. 1967 йил 26 апрель.
- 8.Раҳимбобоева З.Р. Ҳалқ тарихи ва истеъдоди кўзгулари //Ўзбекистон маданияти. 1967 йил 5 апрель. №27 (1159)
9. Халқ даҳосининг самаралари //Ўзбекистон маданияти. 1967 йил 8 апрель. №28 (1160)
10. Ўзбекистон тарихий ва маданий ёдгорликларни сақлаш жамияти 1 таъсис съездининг қарори // Ўзбекистон маданияти. 1967 йил 5 апрель. №27 (1159)